O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 2 - mart 61-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-son qarori ijrosini ta’minlash haqida

Tumanimizning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini izchil rivojlantirish, qishloq va mahallalarni yanada obod qilish, tumanda qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitini shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi “2022 — 2024 yillarda o‘zbekiston respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-98-son va Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 31 yanvardagi 15-10-0-Q/22-son qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan:

a) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari (keyingi o‘rinlarda — mahalliy hokimliklar), manfaatdor vazirliklar, idoralar va xo‘jalik birlashmalari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2022 — 2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi qabul qilinganligi;

b) Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha Respublika komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Respublika komissiyasi) tuzilganligi axborot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 — 2024 yillarda Toshkent tumanining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) qabul qilinsin.

Quyidagilar:

2022-yilda Toshkent tumanida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha manzilli ro‘yxat 1-ilovaga muvofiq;

2022-yilda loyihaoldi va loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan obyektlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha tuman komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Tuman komissiyasi) tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Ergashev, tuman hokimining o‘rinbosarlari S.Mirsagatov, I.Dostonov, Sh.Salixov, tumanning tegishli boshqarma, bo‘lim va tashkilotlari rahbarlari zimmasiga Dasturning asosiy parametrlari, maqsadli ko‘rsatkichlari hamda manzilli ro‘yxatlari belgilangan muddatlarda sifatli va to‘liq amalga oshirilishini, shuningdek, ajratilgan mablag‘lar maqsadli hamda samarali sarflanishini ta’minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

Tuman komissiyasi (S.Ergashev, S.Mirsagatov) zimmasiga Dasturning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish doirasida:

Dasturda ishtirok etayotgan tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish hamda ularning o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

loyihalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammoli masalalarni tezkor hal etish choralarini ko‘rish va mas’ul rahbarlarning bu boradagi ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish;

Dastur ijrosini har oyda muhokama qilib, loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, mablag‘larni maqsadli sarflash va ularning natijadorligini ta’minlash yuzasidan mas’ul rahbarlarning hisobotini eshitib borish vazifalari yuklansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq:

a) quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida rejalashtirilgan mablag‘larni ichki manbalar hisobidan jalb qilingan qarz mablag‘larini, xorijiy kreditlarni va ular bo‘yicha hisoblangan foiz to‘lovlarini qoplashga, shuningdek, ob’ektlar qurish uchun kreditlar ajratishga yo‘naltirish taqiqlanishi, bunda, avval qabul qilingan tegishli qarorlar doirasida kreditlar bo‘yicha asosiy qarz va foiz to‘lovlari respublika budjetida davlat qarziga xizmat ko‘rsatish uchun rejalashtirilgan mablag‘lar hisobidan qoplanishi;

Dasturga kiritilgan hududiy loyihalar (ob’ektlar) bo‘yicha loyiha hujjatlariga asosan kapital qo‘yilmalar limitlari yetishmagan taqdirda, ularni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bilan bog‘liq asoslantirilgan qo‘shimcha xarajatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarorlariga asosan tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan qoplanishi;

budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan idoraviy ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlarining manzilli ro‘yxatlari har yili 1 aprelga qadar Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan kelishilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdagi «Yangi O‘zbekiston» massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-32-son Farmoni doirasida ijtimoiy soha ob’ektlarini qurish ishlari uchun zarur mablag‘lar (500 mlrd so‘m) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun 2022 yilga nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilishi belgilanganligi;

b) 2022 yildan boshlab:

ikki yil muddatga vazirliklar, idoralar va mahalliy hokimliklarning ma’muriy binolarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yangidan boshlanadigan loyihalarni (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan, shuningdek, yangidan tashkil etiladigan shahar va tumanlarda joylashadigan loyihalar bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga kiritish

taqiqlanganligi;

kelgusi yillar uchun ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish jarayonlarida keyingi yillarga o‘tadigan loyihalar (ob’ektlar) sonini bosqichma-bosqich qisqartirish va ularni mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tegishli moliyaviy yilda foydalanishga topshirish nazarda tutilganligi inobatga olinsin.

Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (S.Ergashev), Moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov) tuman boshqarma, bo‘lim va tashkilotlari bilan birgalikda ushbu kichik band talablarining so‘zsiz bajarilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov Qurilish bo‘limi (N.Bozorboev), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (S.Saidov), manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda Dasturning manzilli qismiga kiritilgan ob’ektlarni qurish va (yoki) rekonstruksiya qilish uchun zarur yer uchastkalarini belgilangan tartibda ajratilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari hamda dasturlari asosida shakllantiriladigan loyihalar portfeliga muvofiq, har yili 1 aprelga qadar qurilish ob’ektlari uchun zarur yer uchastkalarini belgilangan tartibda zaxiraga olish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov tuman hokimining tegishli sohalar bo‘yicha o‘rinbosarlari, Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (N.Soipov), Qurilish bo‘limi (N.Bozorboev), Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Sultonov), Xalq ta’limi bo‘limi (Z.O‘tkirov), Maktabgacha ta’lim bo‘limi (L.Karabaeva), Tibbiyot birlashmasi (X.Asadov), Irrigatsiya bo‘limi (S.Avezov) hamda boshqa buyurtmachilar (loyihalar tashabbuskorlari) bilan birgalikda:

a) 3 kun muddatda moliyalashtirish hajmlarini qurilish-montaj ishlarining kalendar jadvallari bilan uzviy bog‘liqlikda aniqlashtirgan holda, 2022 yil uchun yildan-yilga o‘tuvchi qurilish ob’ektlarining manzilli ro‘yxatini viloyat Moliya bosh boshqarmasi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasiga kelishish uchun kiritsin;

b) joriy yilning 15 martiga qadar 2022 yilda yangidan boshlanadigan

loyihalar (ob’ektlar) bo‘yicha tasdiqlangan loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari asosida, belgilangan tartibda tanlov (tender) hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish, xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) g‘oliblari bilan pudrat shartnomalarini tuzish choralarini ko‘rsin;

v) xarid qilish tartib-taomillari yakunlanganidan so‘ng o‘n kun ichida 2022 yil uchun yangidan boshlanadigan qurilish ob’ektlarining yakuniy manzilli ro‘yxatini viloyat Moliya bosh boshqarmasi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasiga kelishish uchun kiritsin;

g) 3 kun muddatda Dasturning asosiy parametrlarini bajarish, shu jumladan loyihalar (ob’ektlar) bo‘yicha kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirishning prognoz ko‘rsatkichlarini choraklar kesimida tasdiqlab, viloyat Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasiga taqdim etsin. Bunda:

2022 yil birinchi yarim yilligida barcha loyihalar (ob’ektlar) bo‘yicha mablag‘larni o‘zlashtirish yillik prognoz ko‘rsatkichining kamida 40 foizini, shu jumladan yildan-yilga o‘tuvchi ob’ektlar bo‘yicha kamida 55 foizini bajarish;

2022 yilda yakunlanadigan ta’lim muassasalari ob’ektlarini — 15 avgustga qadar, sog‘liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar ob’ektlarini — 1 oktabrga qadar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari ob’ektlarini — 1 dekabrga qadar foydalanishga topshirish nazarda tutilsin;

d) joriy yilda qurilishini davom ettirish uchun mablag‘ (limit) nazarda tutilmagan tugallanmagan va foydalanilmayotgan ob’ektlarni belgilangan tartibda konservatsiya qilish, shuningdek, ularni konservatsiya davrida lozim darajada saqlash va muhofaza qilish choralarini ko‘rsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov, tuman Qurilish bo‘limi (N.Bozorboev) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (U.Amanov) hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Dasturning ijrosi yuzasidan tizimli monitoring o‘rnatilishi, har oyda loyihalar (ob’ektlar) kesimida muhokamalar tashkil etilishi va yuzaga keladigan muammolarni tezkorlik bilan hal qilinishini ta’minlasin, monitoring natijalari bo‘yicha viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin;

2022 yil 20 mayga qadar 2023 yilda amalga oshiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarining (ob’ektlarining) dastlabki manzilli ro‘yxatini viloyat hokimligiga kiritilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Salixov, Irrigatsiya bo‘limi (S.Avezov), Moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

a) 2022 yil 15 martga qadar tumanning suv ta’minoti, yerlarning meliorativ holati va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, Dasturga kiritilgan irrigatsiya va melioratsiya loyihalarining samaradorligi va natijadorligini tahlil qilsin;

b) 2022 yil 15 aprelga qadar viloyat hokimligiga:

irrigatsiya va melioratsiya ob’ektlarini suv hamda elektr energiyasi sarfini o‘lchash va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan uskunalari bilan jihozlash uchun zarur mablag‘lar miqdori va moliyalashtirish manbalari;

sug‘orish tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy turdagi resurs tejamkor qurilish materiallaridan foydalanish bo‘yicha takliflar kiritsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-43-son qaroriga muvofiq tuzilgan Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha tuman shtabi (A.Nazarov):

tuman darajasida Dasturning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishi, shu jumladan har bir loyiha (ob’ekt) bo‘yicha mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi, qurilish-pudrat ishlari sifatli bajarilishi, xarid qilish tartib-taomillari qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi;

Dastur doirasida 2022 yilda yakunlanadigan ta’lim muassasalari ob’ektlari 15 avgustga qadar, sog‘liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar ob’ektlari 1 oktabrga qadar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari ob’ektlari 1 dekabrga qadar foydalanishga topshirilishi;

mazkur qarorning 4-bandi b)-kichik bandining ikkinchi xatboshiga muvofiq, kelgusi ikki yil davomida vazirliklar, idoralarning quyi tuzilmalari va mahalliy hokimlik ma’muriy binolarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha yangidan boshlanadigan loyihalar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan, shuningdek, yangidan tashkil etiladigan shahar va tumanlarda joylashadigan loyihalar bundan mustasno) O‘zbekiston

Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga kiritilmasligi ustidan tizimli nazoratni tashkil etsin.

10. Quyidagilar:

a) tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov:

Dasturning sifatli amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, tasdiqlangan prognoz parametrlari bajarilishini muntazam ravishda muhokama qilib borish va ob’ektlarning belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishini ta’minlashga;

Dasturga kiritilgan loyihalar (ob’ektlar) bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini sifatli bajarish hamda ob’ektlarni belgilangan muddatlarda ishga tushirishga;

2022 yil 15 aprelga qadar, 2023 — 2025 yillarda amalga oshiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi loyihalari (ob’ektlari) yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashida ko‘rib chiqilgan takliflarni belgilangan tartibda viloyat hokimligiga hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasiga taqdim etishga;

2023 yil va kelgusi yillar uchun ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturining manzilli qismiga kiritiladigan loyihalarning (ob’ektlarning) loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari qurilish normalari va me’yorlari talablariga qat’iy rioya qilingan holda, o‘z vaqtida ishlab chiqilishi hamda 2022 yil 15 oktabrga qadar belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilishini ta’minlashga;

b) tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Ergashev — Dastur doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar (ob’ektlar) doimiy monitoring va tahlil qilib borilishini, mablag‘lar o‘z vaqtida ajratilishi hamda samarali sarflanishi ustidan tizimli moliyaviy nazoratni ta’minlashga;

v) tuman Qurilish bo‘limi boshlig‘i N.Bozorboev — ob’ektlarning loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari ishlab chiqilishida eng maqbul me’moriy hamda texnik yechimlar qo‘llanilishi, qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi, shuningdek, qurilish me’yorlari va qoidalariga rioya etilishi ustidan tizimli nazoratni ta’minlashga;

g) tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi (L.Karabaeva), Xalq ta’limi bo‘limi (M.O‘tkirov), Tibbiyot birlashmasi (X.Asadov), Irrigatsiya bo‘limi (S.Avezov) rahbarlari — mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish, ularning maqsadli ishlatilishi, qurilish-montaj ishlarining sifatli amalga oshirilishi va

ob’ektlarning belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishini ta’minlashga shaxsan mas’ul va javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

11. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul etib tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov belgilansin.

Qaror ijrosini har oyda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2022 yil 2 martdagi
61-10-212-Q/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qaroriga
13-ilovadan ko’chirma

2022-yilda Toshkent tumanida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash bo‘yicha

MANZILLI RO‘YXAT

mln so‘m

T/r	Loyiha soni	Obyekt nomi va manzili	Amalga oshirish muddati	O‘lchov birligi	Loyiha quvvati	2022-yilda foydalanishga topshiriladigan quvvat	shu jumladan:			2022-yil uchun limit*	Dasturga kiritish uchun asos/ izoh
							Yangi qurilish	Rekon-struksiya	Mukammal ta’mirlash		
1.	*2.*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	*12*
	9.	**Jami*** (8 ta obyekt bo’yicha)**								**62 460,4**	**tegishli obyektlar bo’yicha raqamlar aniqlanganda o’zgarishi mumkin**
		shu jumladan:									
	5.	**Ijtimoiy sohalar**								**20 553,4**	
		shu jumladan:									
	2.	Umumta’lim maktablari		o‘quv o‘rin	680	680			680	7 001,0	
				yotoq joy							
				sport zal (12x24)	1	1	1				
	1.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari		o‘rin	120	120	120			689,4	
	2.	Tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar		o‘rin	110	110			110	12 863,0	
				qatnov	75	75		75			
				obyekt	1	1		1			

		Mahallalarni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalar								**aniqlanadi**	
		shu jumladan:									
		Ichki yo‘llar (qishloq va mahallalar soni — 1048 ta)								**aniqlanadi**	
		Ichimlik suvi ta’minoti (qishloq va mahallalar soni — 44 ta)								**aniqlanadi**	
	1.	**Irrigatsiya va melioratsiya**								**1 907,0**	
		shu jumladan:									
	1.	Irrigatsiya tarmoqlari va inshootlari		kanal, km	2,2	2,2		2,2		1 907,0	
				quvur, km							
				gidrotexnik inshoot, dona							
				lotok, km							
	2.	**Yo‘l-transport infratuzilmasi**			**18,0**	**6,0**		**6,0**		**40 000,0**	
		shu jumladan:									
	2.	Avtomobil yo‘llari		km	18,0	6,0		6,0		40 000,0	
	1.	**Boshqalar**		**obyekt**	1	1	1			**aniqlanadi**	
				nasos agregati, dona							
		shundan:									
	2.	**Umumta’lim maktablari** (Buyurtmachi: Xalq ta’limi vazirligi)**		**o‘quv o‘rin**	**680**	**680**			**680**	**7 001,0**	
				yotoq joy							
				sport zal (12x24)	**1**	**1**	**1**				
		shu jumladan:									

	1.	**Rekonstruksiya qilish**		**o‘quv o‘rin**						**1 901,0**	
				sport zal (12x24)	**1**	**1**	**1**				
1.	1.	Toshkent tumani “Sanoat” MFYdagi 24-sonli maktab	2021-2022-yy.	sport zal (12x24)	1	1	1			1 901,0	Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 12-apreldagi 36-son bayoni
	1.	**Mukammal ta’mirlash**		**o‘quv o‘rin**	**680**	**680**			**680**	**5 100,0**	
2.	1.	Toshkent tumani “Avliyoota” MFYdagi 22-sonli maktab	2022-y.	o‘quv o‘rin	680	680			680	5 100,0	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi PQ-4537-son qarori
	1.	**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari** (Buyurtmachi: Maktabgacha ta’lim vazirligi)**		**o‘rin**	**120**	**120**	**120**			**689,4**	
		shu jumladan:									
	1.	**Rekonstruksiya qilish**		**o‘rin**	**120**	**120**	**120**			**689,4**	
3.	1.	Toshkent tumani “G‘isht Ko‘prik” MFYdagi 29-sonli MTT binosini rekonstruksiya qilish	2021-2022-yy.	o‘rin	120	120	120			689,4	Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2020-yil 19-noyabrdagi 145-son bayoni

	2.	**Tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar** (Buyurtmachi: Toshkent viloyat hokimligi)**		**o‘rin**	**110**	**110**			**110**	**12 863,0**	
				qatnov	**75**	**75**		**75**			
				obyekt	**1**	**1**		**1**			
		shu jumladan:									
	1.	**Rekonstruksiya**		**o‘rin**						**5 200,0**	
				qatnov	**75**	**75**		**75**			
				obyekt	**1**	**1**		**1**			
4.	1.	Toshkent tumani “Masalboy” MFYdagi silga qarshi kurash dispanseri 4-bosqich (75 qatnovli poliklinika va yordamchi binolar)	2022-y.	qatnov	75	75		75		5 200,0	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4191-son qarori
				obyekt	1	1		1			
	1.	**Mukammal ta’mirlash**		**o‘rin**	**110**	**110**			**110**	**7 663,0**	
				qatnov							
5.	1.	Toshkent tumani tibbiyot birlashmasi “Fayzobod” MFYda joylashgan tug‘riq majmuasi	2021-2022-yy.	o‘rin	110	110			110	7 663,0	Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 25-iyundagi 94-son bayoni
	2.	**Avtomobil yo‘llari** (Buyurtmachi: Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi)**		**km**	**18,0**	**6,0**		**6,0**		**40 000,0**	
		shu jumladan:									
	2.	**Rekonstruksiya qilish**		**km**	**18,0**	**6,0**		**6,0**		**40 000,0**	
6.	1.	4R4 “Toshkent sh.Keles sh.-Qozoqkentsoy q.-M39 avtomobil yo‘li (820 km)” avtomobil yo‘lining 0 — 12 km qismini rekonstruksiya qilish	2020 — 2024-yy.	km	12,0					30 000,0	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-fevraldagi 163-f-son farmoyishi

7.	2.	4R4A “4R4 “Toshkent sh.-Keles sh.-Qozoqkentsoy q.-M39 avtomobil yo‘li (820 km)” avtomobil yo‘lidan “Sariyog‘och shahriga kirish” avtomobil yo‘lining 0 — 6 km qismini rekonstruksiya qilish	2020 — 2022-yy.	km	6,0	6,0		6,0		10 000,0	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-fevraldagi 163-f-son farmoyishi
	1.	**Irrigatsiya tarmoqlari va inshootlari** (Buyurtmachi: Suv xo‘jaligi vazirligi)**								**1 907,0**	
		shu jumladan:									
	1.	**Rekonstruksiya qilish**								**1 907,0**	
8.	1.	Toshkent tumanidagi “Damashi” kanalini PK85+00 dan PK154+00 gacha rekonstruksiya qilish	2022-y.	kanal, km	2,2	2,2		2,2		1 907,0	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-dekabrdagi 984-son qarori
	1.	**Boshqalar**		**obyekt**	**1**	**1**	**1**			**aniqlanadi**	
				nasos agregati, dona							
		shu jumladan:									
	1.	**Obodonlashtirish va boshqa obyektlar** (Buyurtmachi: Toshkent viloyati hokimligi)**		**obyekt**	**1**	**1**	**1**			**aniqlanadi**	
		shu jumladan:									

9.	1.	Tuman markazlari va shaharlarning me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish	2022-y.	obyekt	1	1	1			**aniqlanadi**	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4864-son qarori
		Kreditor qarzdorliklarni qoplash uchun								**aniqlanadi**	
		Tuman markazlari va shaharlarning me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish								**aniqlanadi**	
		Qirg‘oq bo‘yi va boshqa himoya inshootlar								**aniqlanadi**	

* limitlar tender (tanlov) savdolari natijalari bo‘yicha aniqlashtiriladi.

** buyurtmachilik vazifasini Toshkent viloyati hokimligi, vazirliklar va idoralar huzuridagi buyurtmachi tashkilotlar bajaradi.

*** 2022-yil uchun limitning jami summasi Manzilli ro’yxatga kiritilgan Toshkent tumanidagi aniq 8ta obyekt bo’yicha chiqarilgan bo’lib, quyidagi loyihalar bo’yicha raqamlar aniqlanganda o’zgarishi mumkin:

Ichki yo‘llar (qishloq va mahallalar soni — _____ta);

Ichimlik suvi ta’minoti (qishloq va mahallalar soni — _____ ta);

Tuman markazlari va shaharlarning me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish;

Kreditor qarzdorliklarni qoplash uchun;

Qirg‘oq bo‘yi va boshqa himoya inshootlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-son qaroriga
19-ilovadan ko’chirma

2022-yilda loyihaoldi va loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan obyektlar

RO‘YXATI

mln so‘m

T/r	Loyiha soni	Obyekt nomi va manzili	O‘lchov birligi	Quvvati	Dasturga kiritish uchun asos
I	**3.**	**Umumta’lim maktablari**	**o‘quv o‘rin** **sport zal (12x24)**	**940**	
		shu jumladan:			
	1.	**Rekonstruksiya qilish**	**o‘quv o‘rin** **sport zal (12x24)**	**420**	
1.	1.	Toshkent tumanidagi 17-sonli maktab	o‘quv o‘rin	420	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-noyabrdagi 689-F-son Farmoyishiga asosan Ishchi guruh taklifi
	2.	**Mukammal ta’mirlash**	**o‘quv o‘rin**	**520**	
2.	1.	Toshkent tumanidagi 11-sonli maktab	o‘quv o‘rin	300	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-noyabrdagi 689-F-son Farmoyishiga asosan Ishchi guruh taklifi
3.	2.	Toshkent tumanidagi 6-sonli maktab	o‘quv o‘rin	220	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-noyabrdagi 689-F-son Farmoyishiga asosan Ishchi guruh taklifi
II	**2.**	**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari**	**o‘rin**	**270**	
		shu jumladan:			
	2.	**Rekonstruksiya qilish**	**o‘rin**	270	

4.	1.	Toshkent tumanidagi 19-sonli MTT binosini rekonstruksiya qilish	o‘rin	150	Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 8-sentabrdagi 130-son bayoni
5.	1.	Toshkent tumanidagi 18-sonli MTT binosini rekonstruksiya qilish	o‘rin	120	Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2021-yil 8-sentabrdagi 130-son bayoni

Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha tuman komissiyasi

TARKIBI

S.Ergashev	—	tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo’yicha birinchi o’rinbosari – Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo’limi boshlig’i, ***tuman komissiyasi raisi***
S.Mirsagatov	—	tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ***tuman komissiyasi raisining o‘rinbosari***
I. Dostonov	—	tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
Sh.Salixov	—	tuman hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
R.Xaydarov	—	tuman hokimining o’rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo bo’limi boshlig’i
Kelishuv bo’yicha	—	tuman prokurorining o‘rinbosari
B.Abduraxmonov	—	tuman Moliya bo’limi mudiri v.b.
M.O’tkirov	—	tuman Xalq ta’limi bo’limi mudiri
L.Karabayeva	—	tuman Maktabgacha ta’lim bo’limi mudiri
X.Asadov	—	tuman Tibbiyot birlashmasi bosh shifokori

N.Bozorboyev	—	tuman Qurilish bo’limi boshlig’i
B.Sirajitdinov	—	tuman Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo’limi boshlig’i
S.Avezov	—	tuman Irrigatsiya bo’limi boshlig’i
O.Raimov	—	tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo’limi boshlig’i
N.Soipov	—	tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig’i
S.Saidov	—	Kadastr agentligining tuman bo’limi boshlig’i
O.Norboyev	—	“Toshkent suv ta’minoti” MChJ tuman bo’limi boshlig’i
O.Usmonov	—	tuman Elektr tarmoqlari korxonasi boshlig’i
I.Yoqubov	—	tuman Gaz ta’minoti bo’limi boshlig’i
Lavozimi bo’yicha	—	tuman hokimligining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha bosh mutaxassisi, ***tuman komissiyasi kotibi***

Izoh:

Tuman komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi;

Tuman komissiyasi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun mutasaddi tashkilotlarning rahbarlari hamda vakillarini jalb qilishi mumkin.